ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL




Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

# AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ISSN:
3060-5245

Agribusiness, scienece and
technology

№ 083688

Platform &
workflow by
OJS / PKP

Toshkent-2026

**BOSH MUHARRIR**
**Oblomuradov Narzullo Naimovich** – i.f.d. (DSc), professor.
**Bosh muharrir oʻrinbosarlari:**
**Islamov Soxib Yaxshibekovich –** q.x.f.d. (DSc), professor.
**Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.
**Farmonov Toʻlqin Xayitmurodovich –** i.f.d. (DSc), professor.
**Muharrir:**
**Beglayev Uchqun Xurramovich –** i.f.f.d. (PhD), dotsent.
**Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:**
**Kusainov Xalel Xaymullayevich** – i.f.d. professor (Qozogʻiston davlat texnologiya universiteti)
**Vilija Aleknevičienė** – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
**Gilbert Ludwig** – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
**Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich –** i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xoʻjaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
**Daiva Makutenene –** professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
**Xaitboyeva Nargiza Alikulovna -** i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

**Tahrir hay'ati:**

**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**
**Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Saidov Muxammad-Ali Xakimovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Rustamova Iroda Baxramjanovna** – i.f.d. (DSc), professor;
**Ochilov Ilhom Sayitqulovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Askarov Nazimjon Niyozovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Abdullayev Altinbek Yangibayevich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Boltayev Abror Sayitmuradovich** — i.f.d. (DSc), dotsent;
**Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich** – i.f.n. professor;
**Mamadiyarov Dilshad Uralovich** – i.f.n. dotsent;
**Achilov Mashrab Ulugʻbekovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Galimova Feryuza Rafikovna** – i.f.n. dotsent;
**Odilova Dilnozaxon Barnayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Yangiboyev Dilshod Gʻulomovich** – i.f.f.d. (PhD);
**Saidova Dildora Nurmatovna** – i.f.n. dotsent;
**Dexkanova Nilufar Sagdullayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Roziqov Jahongir Mustaqim oʻgʻli** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Boltayev Nurali Shiramatovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Ibragimova Madina Ismoilovna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Javliyev Nuriddin Bektemir oʻgʻli** – i.f.f.d. (PhD).

**06.00.00-Qishloq xoʻjaligi fanlari:**
**Shokirov Alisher Djuraboyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Mardanov Husniddin Xolbozorovich** – q.x.f.d. (DSc);
**Abdiyev Fozil Rashidovich** – q.x.f.d. (DSc);
**Sattorov Maqsud Axtamovich** – q.x.f.d. (DSc);
**Yuldashov Nurbek Ergashovich** – v.f.d. (DSc);
**Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich** – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
**Namazov Ixtiyor Choriyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Xudayqulov Jonibek Bozarovich** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Eshonqulov Jamoliddin Saporboy oʻgʻli** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Abdullayev Anvar Kodirullayevich** – b.f.n., katta ilmiy xodim;
**Atabayev Maʼruf Maxmudovich** – q.x.f.n. professor;
**Safarov Asqar Asadullayevich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Mustafakulov Davron Mamatqulovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Kasimov Botir Sadriddinovich** – q.x.f.f.d. (PhD);
**Akramov Umidilla Ikramdjanovich** – q.x.f.n. dotsent;
**Elboboyev Abdugʻani Shuxrat oʻgʻli** – q.x.f.f.d. (PhD);
**Muxammadov Yoʻldoshbek Akmal oʻgʻli** – q.x.f.f.d. (PhD);
**Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.



**MUASSIS**
Toshkent davlat agrar universiteti

**ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR**
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00


**Jurnalning ilmiyligi:**

Maʼlumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari boʻyicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar roʻyxati"ga kiritilgan.


**Elektron nashr,** 673 sahifa.
E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda ruxsat etildi.

2026-yil, iyul.
№7-son.
ISSN: 3060-5245

# MUNDARIJA

## IQTISODIYOT FANLARI

**MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA**
Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida)……………………………………………………………9
**KOZIMJONOV ABRORBEK**
Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari……………………………………16
**KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA**
Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish……………………………24
**RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH**
Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari……………………………………………………………………30
**ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH**
O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi……………………………………………………………………42
**TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI**
Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari……………………………………………………………………49
**ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH**
Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies……………………………………………………………………55
**ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH**
Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish……………………………………………63
**ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON CHARSHAMIYEVICH**
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili………………………„,…………………………………71
**UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI**
Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish……………………………………………80
**ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA**
Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari……………………………88
**URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH**
Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari…………………………95
**G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH**
Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri……………………………………………109
**ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI**
Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari……………………………………………………………119

2026-yil, iyul.
№7-son.
ISSN: 3060-5245

**SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH**
Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri……………………………………………………131
**KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH**
Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish……………………………………140
**ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH**
Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi……………………………150
**AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON JALOLIDIN QIZI**
Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari………………………163
**SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI**
Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari……………………………………………………………169
**SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH**
Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari……………………………………………………………………………179
**MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI**
O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari……………………………………………………184
**ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА**
Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования…………………………………………………………………………………………193
**G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI**
Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari……………………………………………………………………………………………208
**USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI**
Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy–konseptual asoslari……………………………………………………………………………………………214
**ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA**
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari……………………………………………………………………………………223
**KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH**
Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari…………………………………………………………………234
**TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA**
Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli…………………240
**SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA**
Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi…………254
**HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH**
Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish…………………………………………………………………………………………261
**SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI**
Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan……………………………………………………………270

2026-yil, iyul.
№7-son.
ISSN: 3060-5245

**XAMDAMOV SARDOR FARMON O‘G‘LI**
Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari……………………………………………………………………………….276

**SHAMSIDINOVA ZILOLAXON MAXMUDJON QIZI, MITILLAYEV IBROHIMJON**
Diversifikatsiyalanayotgan bank resurslarida likvidlikni boshqarish………………..281

**HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH**
Ta’lim – moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar……………………………………………………………….290

**TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH**
Buxoro viloyati bo‘yicha ko‘rsatilgan savdo xizmatlari hajmiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish……………………………………………………..299

**ТЛЕУМУРАТОВА БАХАДИРА ГЕНЖЕМУРАТОВИЧА**
Развитие и повышение эффективности сферы услуг (на примере Республики Каракалпакстан)……………………………………………………………………………….314

**ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH**
Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish……………………………………………………………..324

**TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH**
Buxoro viloyati bo‘yicha ko‘rsatilgan savdo xizmatlari hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar dinamikasini iqtisodiy prognozlash………………………………………………..335

**G‘ULOMOVA SHAXLO BAXTIYOR QIZI**
Improving strategic and operational management of construction projects in uzbekistan: a conceptual adaptation of a hybrid model……………………………………..348

**IMOMJON KHAMIDOV**
Public perceptions of environmental risks and willingness to pay for environmental protection: evidence from Uzbekistan and Central Asia……………………………………355

**ШУКУРОВА ШАХЗОДА ДЖАЛОЛОВНА**
Влияние инфляционных процессов на развитие внешней торговли Республики Узбекистан…………………………………………………………………………..365

**ABDILXATOV ULUG‘BEK ABDULQUDDUS O‘G‘LI**
O‘zbekiston bank tizimida islom investitsiya mahsulotlarini joriy etishning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta’siri……………………………………………………375

**ESHTEMIROVA MA’RIFAT AKRAM QIZI**
Digital transformation of the banking sector and financial inclusion in Uzbekistan………………………………………………………………………………………………383

**JUMAQULOV TEMUR**
Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari……………………………………………………391

**RAXMATOVA JO‘RAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI**
Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyati: nazariy asoslari va boshqaruv mexanizmi…………………………………………………………………………………………397

**TASHPULATOVA MUNIRAXON MAHMUDOVNA**
Korxonalarda risk boshqaruvi orqali xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishni baholash usullari va modellari………………………………………………………………405

2026-yil, iyul.
№7-son.
ISSN: 3060-5245

# EKOTURIZM SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATI: NAZARIY ASOSLARI VA BOSHQARUV MEXANIZMI

**RAXMATOVA JOʻRAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI**
Toshkent davlat agrar universiteti
"Agrobiznesni boshqarish va logistika" kafedrasi assistenti
E-mail: joraxonnozimaraxmatova@gmail.com
ORCID: 0009-0004-1929-8860

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekoturizm va uning subyektlari tushunchalarining iqtisodiy mohiyati ochib berilgan, innovatsion faoliyatni boshqarishning konseptual yondashuvlari (tizimli, institutsional, strategik, klaster, raqamli boshqaruv) asoslangan hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi oʻrganilgan. Maqolada "ekoturizm subyektining innovatsion faoliyati" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan, uning 4 turdagi tasnifi (texnologik, marketing, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy) taklif qilingan hamda innovatsion boshqaruv mexanizmining tarkibiy elementlari asoslangan. Taklif etilayotgan yondashuv Oʻzbekiston milliy tabiat bogʻlari misolida qoʻllash imkoniyatlarini ochib beradi.
Kalit soʻzlar: ekoturizm, innovatsion faoliyat, boshqaruv mexanizmi, milliy tabiat bogʻlari, mualliflik ta'rifi, raqamli transformatsiya, klaster yondashuvi, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы управления инновационной деятельностью субъектов экотуризма. Раскрыта экономическая сущность понятий экотуризма и инновационной деятельности, обоснованы концептуальные подходы к управлению инновационной деятельностью (системный, институциональный, стратегический, кластерный, цифровое управление) и изучен опыт зарубежных стран. В статье разработано авторское определение понятия «инновационная деятельность субъекта экотуризма», предложена его 4-видовая классификация (технологические, маркетинговые, организационно-управленческие, социальные инновации) и обоснованы структурные элементы механизма инновационного управления. Предлагаемый подход раскрывает возможности его применения на примере национальных природных парков Узбекистана.
Ключевые слова: экотуризм, инновационная деятельность, механизм управления, национальные природные парки, авторское определение, цифровая трансформация, кластерный подход, устойчивое развитие.

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of managing the innovative activities of ecotourism entities. The economic essence of the concepts of ecotourism and innovative activity is revealed, conceptual approaches to managing innovative activity (systemic, institutional, strategic, cluster, digital management) are substantiated, and the experience of foreign countries is studied. The article develops the author's definition of the concept of "innovative activity of an ecotourism entity", proposes its 4-type classification (technological, marketing, organizational-managerial, social innovations), and substantiates the structural elements of the innovative management mechanism. The proposed approach reveals the possibilities of its application on the example of national natural parks of Uzbekistan.
Keywords: ecotourism, innovative activity, management mechanism, national natural parks, author's definition, digital transformation, cluster approach, sustainable development.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ekoturizm barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida tobora kuchayib bormoqda. Xalqaro sayyohlik tashkilotining (UNWTO) ma'lumotlariga koʻra, 2023–2025-yillarda global ekoturizm bozorining

yillik oʻsish sur’ati 10–15 foizni tashkil etib, ushbu soha jahon yalpi ichki mahsulotida 2,5–3,0 foiz ulushga ega. BMTning 2030-yilgacha boʻlgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida ekoturizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim oʻzgarishiga qarshi kurash va mahalliy hamjamiyatlarni iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash vazifalarini oʻz ichiga oladi [1].

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning noyob tabiiy landshaftlari, xilma-xil biologik xilma-xilligi va qadimiy madaniy merosiga egaligi bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizda 10 dan ortiq milliy tabiat bogʻlari (MTB) — Orolbuyi, Orolqum, Janubiy Ustyurt, Yuqori Toʻpalang, Zarafshon, Omonqoʻton, Xorazm, Markaziy Qizilqum, Pop, Ugom-Chotqol — faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy maydoni 5 million gektardan oshadi. Ushbu hududlar dunyoda kam uchraydigan ekotizimlarni, jumladan, qor qoploni (*Panthera uncia*), Tyan-Shan qoʻngʻir ayigʻi (*Ursus arctos*), saygʻoq (*Saiga tatarica*) kabi noyob turlarni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega [2; 3].

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PQ-21-son qarori, 2025-yil 11-martdagi PF-217-son Farmoni hamda 2026-yil 25-martdagi yangi milliy tabiat bogʻlarini tashkil etish haqidagi qarori ekoturizm sohasida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni qoʻllashni talab qilmoqda [4; 5]. Shu nuqtai nazardan, maqolaning maqsadi — “ekoturizm subyektining innovatsion faoliyati” tushunchasining ilmiy asoslangan ta’rifini ishlab chiqish va uni boshqarishga oid mualliflik yondashuvini taklif qilishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyatini boshqarish, barqaror rivojlanish, ekologik menejment hamda raqamli innovatsiyalarni joriy etish masalalari boʻyicha xorijiy olimlardan R.McKercher, B.B. Sousa, M.M. Alonso-Almeida, A. Rocafort, F. Borrajo, L. Ruhanen, C. Bell, M.M. Eltamo, J. Ravi, F.Eddyono, D. Darusman, U.Sumarwan va T.Sunarminto ilmiy tadqiqotlar olib borib, ekoturizmni innovatsion rivojlantirishning nazariy-uslubiy hamda amaliy asoslarini yoritganlar. MDH mamlakatlari olimlaridan A.Ye.Aleksandrova, V.A.Kvartalnov, N.I. Kabushkin, M.A.Morozov va A.D.Chudnovskiy turizm va ekoturizmni innovatsion boshqarish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish hamda barqaror turizmni rivojlantirish masalalarini tadqiq etganlar. Oʻzbekistonda ekoturizm va turizm sohasini innovatsion rivojlantirish, turizm xizmatlari samaradorligini oshirish hamda ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish boʻyicha N.Q.Yoʻldoshev, G.A.Xamdamova, A.J. Toshboev, I.S. Ochilov, M.T.Aliyeva, N.K. Egamberdiyev va Sh.T. Tursunovlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada qoʻyilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tizimli yondashuv, tarkibiy-tizimli tahlil, mantiqiy va qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish hamda abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Ekoturizm va innovatsion faoliyat tushunchalariga oid 20 dan ortiq xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar kontent-tahlil qilindi. Mavjud taʼriflar qiyosiy baholandi va ularning ilmiy-metodologik yetishmovchiliklari aniqlandi. Tadqiqot, shuningdek, Oʻzbekistondagi 10 ta milliy tabiat bogʻi faoliyatini oʻrganishga asoslangan boʻlib, ushbu bogʻlarning 17 ta mezon boʻyicha tahliliy koʻrsatkichlari umumlashtirildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda “ekoturizm” tushunchasi, uning tamoyillari, iqtisodiy va ekologik samaradorligi, boshqaruv mexanizmlari kabi masalalar 1970-yillardan boshlab oʻrganila boshlangan. Tushunchaning asoschilaridan biri Ceballos-Lascuráin ekoturizmni tabiiy hududlarga amalga oshiriladigan, atrof-muhitga salbiy taʼsirni minimallashtirish va tabiiy obʼektlarni anglashga yoʻnaltirilgan sayohat shakli sifatida talqin qilgan. M.F. Çelik va M. Aydoğdu (2023) ekoturizmning barqaror rivojlanishdagi oʻrni, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini kompleks baholagan holda, sohada innovatsion yondashuvlarning zarurligini asoslaganlar [6].

Zamonaviy iqtisodiy nuqtai nazardan ekoturizm — bu tabiiy va madaniy resurslardan foydalanish asosida ekologik masʼuliyatli turistik xizmatlarni ishlab chiqish, taqdim etish va isteʼmol qilish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi boʻlib, uning asosiy maqsadi iqtisodiy foyda olish bilan bir vaqtda tabiiy muhitni saqlash va hududlarning barqaror rivojlanishini taʼminlashdan iborat.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ekoturizm subyektlari tushunchasi keng iqtisodiy mazmunga ega boʻlib, ular ekoturistik mahsulotni shakllantirish, uni bozorga olib chiqish, xizmatlarni tashkil etish, tabiiy resurslardan foydalanish va ekologik nazorat jarayonlarida ishtirok etuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslar majmuini anglatadi [7]. Ular shartli ravishda 6 ta asosiy guruhga ajratiladi (1-jadval).

Ekoturizm subyektlarining oʻziga xos xususiyatlari — ular faoliyatining tabiiy resurslarga bevosita bogʻliqligi, koʻp maqsadlilik (iqtisodiy daromad olish bilan birga tabiatni muhofaza qilish va ekologik taʼlimni amalga oshirish), yuqori darajadagi institutsional bogʻliqlik hamda innovatsion rivojlanishga boʻlgan ehtiyojning yuqoriligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion faoliyatni boshqarishning bir nechta konseptual yondashuvlari shakllangan [8]. Xususan, tizimli yondashuv innovatsion boshqaruvni oʻzaro bogʻliq elementlardan tashkil topgan yagona tizim sifatida qaraydi. Institutsional yondashuv boshqaruv jarayonida davlat, biznes, jamoat tashkilotlari va mahalliy aholi oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganadi. Strategik yondashuv innovatsiyalarni tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari bilan bogʻlaydi. Klaster yondashuvi — bir hududdagi oʻzaro bogʻliq

2026-yil, iyul.
№7-son.
ISSN: 3060-5245

tashkilotlar va xizmat koʻrsatuvchi subyektlarni birlashtirishni nazarda tutadi. Raqamli boshqaruv yondashuvi esa axborot texnologiyalari asosida qaror qabul qilish va xizmatlarni boshqarishga asoslanadi.

**1-jadval**

**Ekoturizm subyektlarining tarkibi va iqtisodiy vazifalari**

| T/r | Ekoturizm subyekti | Asosiy vazifalari | Iqtisodiy manfaati |
|---|---|---|---|
| 1 | Davlat boshqaruvi organlari | Qonunchilik bazasini shakllantirish, nazorat va strategik boshqaruv | Hududiy iqtisodiy rivojlanish va soliq tushumlari |
| 2 | Milliy tabiat bogʻlari maʼmuriyati | Tabiiy resurslarni muhofaza qilish, turistik faoliyatni tashkil etish | Turistik xizmatlardan tushadigan daromadlar |
| 3 | Turistik tashkilotlar | Ekologik marshrutlar va turistik mahsulotlarni ishlab chiqish | Xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirish |
| 4 | Mahalliy aholi | Mehmon uylari, hunarmandchilik, xizmat koʻrsatish faoliyati | Qoʻshimcha daromad va bandlik |
| 5 | Ilmiy-taʼlim muassasalari | Ilmiy tadqiqot, ekologik taʼlim va innovatsiyalar | Ilmiy salohiyatdan iqtisodiy foydalanish |
| 6 | Xususiy investorlar | Infratuzilma va xizmat obʼektlariga investitsiya kiritish | Investitsiya daromadi olish |

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ekoturizmda innovatsion boshqaruvning asosiy tamoyillarini belgilab beradi: resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish; ekologik xavfsizlikni taʼminlash; iqtisodiy samaradorlik; ijtimoiy hamkorlik; uzluksiz innovatsion rivojlanish [9]. Shuningdek, iqtisodiyot nazariyotchilarining (J. Shumpeter, O. Kalenov) ishlarida taʼkidlanganidek, innovatsiyalar nafaqat yangi mahsulot yoki texnologiyalarni yaratish, balki mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi [10].

Xorijiy tajriba tahlili shuni koʻrsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada) milliy bogʻlarni boshqarish tizimi innovatsion texnologiyalar, ilmiy yondashuv va manfaatdor subyektlar hamkorligi asosida takomillashtirilgan [11; 12; 13]. Xususan, Buyuk Britaniyada strategik rejalashtirish va regenerativ (tiklovchi) turizm konsepsiyasi; Yaponiyada mahalliy aholi ishtiroki, ekologik taʼlim va tabiiy-madaniy resurslarni integratsiyalash; Kanadada esa ilmiy asoslangan boshqaruv, ekotizim yondashuvi va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari samarali qoʻllanilmoqda. Bu tajribalar Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda ekoturizm faoliyati asosan tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya va taʼlim yoʻnalishlarida tadqiq qilingan boʻlib, uning innovatsion jihati tizimli oʻrganilmagan. Ushbu ilmiy boʻshliqni toʻldirish maqsadida quyidagi mualliflik taʼrifi ishlab chiqildi: *“Ekoturizm subyektining innovatsion faoliyati — bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik*

2026-yil, iyul.
№7-son.
ISSN: 3060-5245

*xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida korxonaning texnologik, marketing, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy sohalarda yangi gʻoyalarni ishlab chiqish, oʻzlashtirish va tijoratlashtirish qobiliyatidir."* Taklif etilgan ta'rif asosida ekoturizm subyektlari innovatsion faoliyatining ilmiy asoslangan 4 turli tasnifi ishlab chiqildi (2-jadval).

**2-jadval**

**Ekoturizmda innovatsion faoliyatning asosiy turlari va ularning mazmuni**

| T/r | Innovatsiya turlari | Mazmuni | Amaliy natijasi |
|---|---|---|---|
| 1 | Texnologik | Ekologik toza texnologiyalar, energiya tejamkor uskunalar, IoT va sun'iy intellekt asosidagi raqamli monitoring | Boshqaruv samaradorligi va xizmatlar sifatining oshishi |
| 2 | Marketing | Ekoturistik mahsulotlarni pozitsionlash, raqamli marketing, brending, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish | Turistlar oqimi va bozor qamrovining kengayishi |
| 3 | Tashkiliy-boshqaruv | Klasterli boshqaruv, loyiha boshqaruvi, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), zamonaviy HR-usullar | Subyektlar oʻrtasida samarali hamkorlik shakllanishi |
| 4 | Ijtimoiy | Mahalliy aholini jalb qilish, ekovolontyorchilik, ekologik ta'lim dasturlari, jamoatchilik boshqaruvi | Ekologik barqarorlik va ijtimoiy qabulning oshishi |

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tasnifning ilmiy ahamiyati shundaki, u barcha innovatsion oʻzgarishlarni yagona tizimga solib, ularning oʻzaro bogʻliqligi va ekoturizm samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijasida ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmi quyidagi  tarkibiy elementdan iborat ekanligi aniqlandi: maqsadli element, boshqaruv subyektlari, boshqaruv ob'yektlari, iqtisodiy instrumentlar, axborot ta'minoti, nazorat va baholash tizimi, ragʻbatlantirish mexanizmlari. Ushbu elementlarning oʻzaro uygʻunligi "iqtisodiy manfaatdorlik – innovatsion rivojlanish – ekologik barqarorlik" tamoyili asosida shakllantirilishi lozim. Shuningdek, ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyatini boshqarish boʻyicha quyidagi mualliflik yondashuvi taklif etiladi:

"Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyatini boshqarish — bu ekologik turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun innovatsion texnologiyalar, boshqaruv usullari, raqamli yechimlar va yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish hamda joriy etish jarayonlarini strategik, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar asosida muvofiqlashtirish tizimidir."

Ushbu yondashuv 5 blokli "Innovatsion faoliyatni boshqarishning dasturiy-maqsadli modeli" (strategik rejalashtirish, tashkiliy-funktsional blok, resurslarni ta'minlash, ragʻbatlantirish va motivatsiya, monitoring va baholash) ni ishlab chiqishga asos boʻldi. Modelning samaradorligi iqtisodiy (daromadlarni

2026-yil, iyul.
№7-son.
ISSN: 3060-5245

1,5–2 baravarga oshirish) va ekologik (ekologik xavfsizlik darajasini oshirish) jihatdan hisob-kitob qilindi.

Taklif etilayotgan ta'rif va yondashuvning mavjud ilmiy qarashlardan farqli jihatlarini yaqqol koʻrsatish uchun qiyosiy jadval tayyorlandi (3-jadval).

**3-jadval**

**"Ekoturizm subyektining innovatsion faoliyati" tushunchasiga turli ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili**

| T/r | Yondashuv / Mualliflar | Ta'rifning asosiy mazmuni | Innovatsion jihat | Ekoturizmning oʻziga xosligi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Xalqaro ekoturizm jamiyati | Tabiiy hududlarga mas'uliyatli sayohat, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholi farovonligi | Aks ettirilmagan | Qisman |
| 2 | Barqaror rivojlanish konsepsiyasi | Tabiiy resurslardan kelajak avlodlar manfaati uchun oqilona foydalanish | Aks ettirilmagan | Qisman |
| 3 | Iqtisodiy yondashuv | Tabiiy resurslarni iqtisodiy qimmatga aylantirish, yangi ish oʻrinlari yaratish | Aks ettirilmagan | Qisman |
| 4 | Oʻ.Hamidov (2019) | Ekologik turizmni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va hududiy rejalashtirish | Aks ettirilmagan | Toʻliq |
| 5 | A. Mirzayev (2021) | Turistik-rekreasion faoliyatni boshqarish metodologiyasi | Aks ettirilmagan | Qisman |
| 6 | N. Shamshiyeva va boshq. (2026) | IoT va AI asosida ekoturizmni boshqarish | Qisman aks ettirilgan | Toʻliq |
| 7 | Mualliflik ta'rifi | Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun 4 turdagi innovatsiyalarni joriy etish qobiliyati | Toʻliq aks ettirilgan | Toʻliq |

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

## XULOSA

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyatini nazariy-metodologik asoslash boʻyicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

"Ekoturizm subyektining innovatsion faoliyati" tushunchasining mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Ushbu ta'rif tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida texnologik, marketing, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy sohalarda yangi gʻoyalarni ishlab chiqish, oʻzlashtirish va tijoratlashtirish qobiliyatini ifodalaydi.

Innovatsion faoliyatning 4 turli texnologik, marketing, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy ilmiy asoslangan tasnifi taklif qilindi. Tasnif barcha innovatsion

oʻzgarishlarni yagona tizimga solib, ularning oʻzaro bogʻliqligi va ekoturizm samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish imkonini yaratadi.

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyatini boshqarishning tarkibiy elementlari va "iqtisodiy manfaatdorlik – innovatsion rivojlanish – ekologik barqarorlik" tamoyiliga asoslangan mualliflik yondashuvi asoslandi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. UNWTO. (2024). World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi. (2025). Milliy tabiat bogʻlari toʻgʻrisida hisobot. Toshkent.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-oktyabrdagi PQ-392-son qarori. lex.uz
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PQ-21-son qarori. "Oʻzbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida". lex.uz
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi PF-217-son Farmoni. lex.uz
6. Çelik, M.F., & Aydoğdu, M. (2023). Ecotourism and sustainable development: A comprehensive assessment. Journal of Sustainable Tourism, 31(4), 890-907.
7. Hamidov Oʻ.H. (2019). Oʻzbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand.
8. Mirzayev A.T. (2021). Oʻzbekistonda turistik-rekreasion faoliyatni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
9. Eagles, P.F.J., & McCool, S.F. (2021). Tourism in National Parks and Protected Areas. CABI Publishing.
10. Kalenov, O.E. (2017). Approaches to Evaluation of the Company Innovation Activity. Вестник РЭУ им. Г.В. Плеханова, 3(93), 45-58. (DOAJ)
11. Gursoy, D., & Ozturk, D.G. (2023). Digital transformation in tourism post-pandemic: AI and Big Data applications. Tourism Management, 98, 104-118.
12. Shamshieva, N.N., Davletov, I.X., Xalimova, F.N., & boshq. (2026). IoT and AI-driven approaches to sustainable eco-tourism and cultural heritage management in Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 486, 03012.
13. Yunusova, R., Abdullayeva, M., & boshq. (2026). Blockchain and Digital Platforms for Transparency and Visitor Management in Sustainable Eco-Tourism. E3S Web of Conferences, 486, 02015.
14. Abdurahimov, H. (2025). Ekoturizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning oʻrni va funktsiyalari. Innovations in Science and Technologies, 3(1), 45-58.

15. Norchayev A.N. (2021). Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.

16. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.

17. Komilova N., Usmanov M. (2023). Jizzax vodiysi misolida turizmning iqtisodiyotga ta'siri, ekoturizm va agroturizm masalalari. ResearchGate.

18. Karimov M.A. va boshq. (2024). Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Innovations in Science and Technologies.

19. Hughey, K.F.D., & Ward, K.J.W. (2023). Community participation and local collaboration models in ecotourism (New Zealand case). Tourism Recreation Research, 48(2), 210-225.

20. CWE Journal. (2024). Ecotourism: A Holistic Assessment of Environmental and Socioeconomic Effects. Chinese Journal of Urban and Environmental Studies, 18(2), 589-607.

**2026-yil, iyul. №7-son.**

**Mas'ul muharrir:** Beglayev Uchqun
**Musahhih:** Boltayev Nurali
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari boʻyicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar roʻyxati"ga kiritilgan.

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,**
**Universitet koʻchasi, 2-uy**